

A. ORIPOVNING “AYOL” SHERIDAGI AYRIM XUSUSIYATLAR

Tillayeva Zilola Abdullajon qizi

Farg’ona viloyati

Yozyovon tumani 39-maktab o’qituvchisi

1.a. She’rning grafik shakllantirilishi.

Men tanlab olgan she’rim A. Oripovning “Ayol” she’ri. Ushbu she’r “Yurtim shamoli” (1976), “Surat va siyrat” (1980), “Yillar armoni” (1986), “Asarlar”ining I jildi (2001)ga hamda Abdurashid Nurmurodovning “Tutash qalblar” kitobiga kiritilgan. Men ularni o’zoro solishtirib ciqdim. Dastlabki solishtirishda she’rimizni grafik shakllantirilishiga ahamiyat qaratamiz. Ushbu she’r 40 misradan iborat bo’lib, 4 banddan tashkil topgan.

1.b. Tinish belgilarining ishlatilishi.

Tanlab olgan she’rimni “Surat va siyrat” (1976) to’plamiga kiritilgan matnining ikkinchi bandi to’rtinchi misrasida “visol” so’zidan keyin vergul qo’yilgan. Fikrimizcha buning sababi deb so’zi kelganligi uchun ko’chirma gap sifatida vergul bilan ajratilgan. Lekin bu yerda ko’chirma gap kelmagan. Shuning uchun vergul qo’yilishini punktuatsiya qopidalariga zid deb hisoblaymiz va quyidagi variantni ma’qul ko’ramiz:

Abadiy visol deb bildi kelinchak.

She’rimizni Abdurashid Nurmurodovning “Tutash qalblar” kitobiga kiritilgan matnida beshinchi bandning uchinchi misrasida “sharafim” so’zidan keyin tinish belgi ishlatilmagan. Bizningcha esa vergul qo’yilishi kerak edi. Chunki bu yerda “qahramon jangchining sodiq bevasi” undalma bo’lib kelmoqda. Shuning uchun biz quyidagicha baholadik:

Sengadir hurmatim, senga sharafim,

Qahramon jangchining sodiq bevasi.

Beshinchi bandning birinchi misrasida barcha to’plamlarda keltirilgan matnlarda “nahot” modal so’zidan keyin vergul qo’yilmagan. O’zbek tili grammatikasi qoudasiga muvofiq modal so’zlar butun gapga nafaqat gapga butun matnga munosabat ifodalaydi va vergul bilan ajratib yoziladi. She’rimizda kelayotgan “nahot” modal so’zi ham shoir tomonidan hayrat munosabatini ifodalayapti. Bu hayrat oddiy hayrat emas, CHUQR HAYRATni ioda etmoqda. Shunga ko’ra bu misrani quyidagicha ifodaladik:

Nahot, ishq qismati buncha beraxm,

Bunchlar buuyksan vafo shevasi .

Ayni shu misraga yana e’tibor qaratamiz. Unda “vafo shevasi” birikmasi undalma hisoblanib, undalmalar vergul bilan ajratib yoziladi. Shuning uchun “bunchalar buyuksan” birikmasidan keyin vergul qo’yilishi kerak edi.

Nahot, ishq qismati buncha beraxm,

Bunchlar buuyksan, vafo shevasi .

Oltinchi misraning birinchi bandida esa “siz-chi” so’zidan keyin “Yurtim shamoli”, “Yillar armoni”, “Asarlar” I jilddagi va A. Nurmurodovning “Tutash qalblar” kitobida hech qanday tinish belgisi qo’yilmagan. “Surat va siyrat” yo’plamida bo’lsa vergul bilan ajratilgan. Bizningcha vergul tinish belgisi qo’llanilishi kerak edi. Chunki. Bu yerda “siz-chi” so’z gap bo’lib kelyapti. Ayni shu misra barcha to’plamlardagi matnlarda “ey” so’zidan keyin vergul qo’yan. O’zbek tili qoidasi undov so’z va undalmalar yonma-yon kelganda vergul qo’ymaydi:

Siz-chi, ey sadoqat satridan nolib,

Nadomat komida qolganlar, ayting.

“Surat va siyrat” to’plamida aynan mana shu bandning to’rtinchi misrasidagi “solganlar” so’zidan keyin hech anday tinish belgisi ishlatilmagan. Aslida bu so’z undalma. Gapda undalmalar vergul bilan ajratilishi o’zbk tili imlo qoidalardan ma’lum. Biz qoidaga muvofiq quyidagi tarzda yozilishini ma’qul topdik:

Ming bitta bozorga solganlar, ayting.

Aynan shu bandning birinchi misrasi “Tuyash qalblar” to’plamida “sadoqat satri” birikmasi “sadoqat so’zi” tarzida berilgan. Bizningcha bu maqsadga muvofiq emas. Chunki sadoqat so’zi bu tor doiradagi fikrni beradi shuning uchun ham “satr” deb qo’llangani ma’qul.

Barcha to’plamlarda keltirilgan matnning yettinchi band birinchi misrasidagi “uchun” va “Surat va siyrat”, “Tutash qalblar” kitobidagi matnda uchinchi misrasidagi “nechun” so’zlaridan keyin vergul qo’llanilgan. Ushbu o’rnarda fikr to’la shakllanmagani uchun hech qanday tinish belgisi qo’ymaslik maqsadga muvofiq bo’lar edi. Misralarni inversiyadan chiqarib tahlil qilamiz: “Ba’zida tirnoqlar bezagi uchun sahardan shomgacha toqat qilursiz.

Biroq yoringizni kutgali nechun tirnoqcha sabr qanoat topilmas” shu sababli ushbu so’zlardan keyin hech qanday tinish belgisi qo’ymaslik to’g’ri bo’lar edi.

Ba’zida tirnoqlar bezagi uchun

Sahardan shomgacha qilursiz toqat.

Biroq yoringizni kutgali nechun

Topilmas tirnoqcha sabr-u qanoat.

1.v. Tanlab olgan she’rimni “Yillar armoni” to’plamiga kiritilgan matnining to’rtinchi bandning ikkinchi misrasida “termular” so’zi “termilar” tarzida yozilgan. Aslida bu so’z “termular” tarzida yozilishi kerak edi. Biz mana shunday yozish tarafdomiz:

Mung’ayib termular botguchi kunga.

She’rimizning beshinchi band to’rtinchi misrasida qo’llangan so’z “Yutim shamoli”, “Tutash qalblar”, “Asarlar” I jildida “sodiq”, “Yillar armoni” to’plamida “buyuk”, “Surat va siyrat” to’plamida “suyuk” tarzida qo’llanilgan. Aniqroq tahlil qilish uchun o’zimizga maqbul variantni tanlab muqoyosa qildik. Ya’ni “qahramon jangchining sodiq bevasi” ko’rinishida yozilishi tarafdomiz. Chunki she’r mazmuniga

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

e'tibor qaratsak, she'r urush yillarini aks ettirmoqda. Endi "beva" so'zini ko'rib chiqamiz. Ma'lumki, "beva" deb turmush o'rtog'i vafot etgan ayollarga aytildi. Bizning bevamiz esa turmush o'rtog'idan tasodiyy baxtsiz hodisa sabab ajragan ayol emas, uning turmush o'rtog'i urushda xalok bo'lmoqda. Yana yosh navqiron chog'ida. Ayol ham ayni umrining bahor ayyomida, o'n to'qqiz yoshida. Shuning uchun ayni damda "beva" so'ziga "sodiq" sifatlovchisini qo'llasak maqsadga muvoiq bo'lar edi deb hisobladik.

Sengadir hurmatim, senga sharfim,
Qahramon jangchining sodiq bevasi.

1.2. Men she'rimning eng maqbuli deb "Yurtim shamoli" to'plamiga kiritilgan matnini oldim, sababi ushbu she'r boshqa to'plamdag'i nusxalardan avvalroq nashr qilinganligi. Yana bu matnda tinish belgilarining noo'rin qo'llanishi nisbatan kamroq, so'zlar ham mazmunga mos tarzda ishlatilgan.

1.3. Tanlagan she'rimda qo'llanish doirasi chegaralangan va tarixiy so'zlar qahramon, jangchi, yulqib, bamisli, aqiq so'zlaridir.

Aqiq- turli rangli qimmatbaho tosh.

Jangchi – urush qatnashchisi urushda qatnashayotgan kishi

Yulqib- tortqilab uzib tashlamoq.

Bamisli-huddi, go'yo, go'yoki so'zlariga sinonim.

2.a. Kontekstual tahlil

Men tahlil uchun tanlagan she'r 1965-yil mart oyida yozilgan bo'lib, O'zbekistonda ayni "rivojlangan sotsializm" bosqichi deb e'lon qilingan davrga to'g'ri keladi. Ayni "hamma teng huquqli" deb bong urilayotgan bu dam A. Oripov va uning MASHAQQATLI ijodi uchun ancha murakkab, tahlikali vaziyatlarni keltirib chiqardi. Sovetlar hukmronligi davrida g'oyatda og'ir sharoitda ham ijodkor degan ulug' nomga dog' tushirmagan adib, o'z she'rlari bilan xalq qalbida milliy qadriyatlarni aks ettira oldi. Jumladan, "Ayol" she'ri ham ana shunday milliy ruhni o'zida mijassamlashtira olgan asardir. Unda shoir real hayotdagi voqealarni yuksak badiiy mahorat, badiiy did, badiiy saviya bilan aks ettirdi. Qondan bitilgan maktub bu oddiy maktub emas edi, vaholanki, u millionlab sadoqatli jangchilarni, xalqni duo qilib, o'z bolasini umrini tilab turgan onalarning farzandlari, o'z vadasida sobit turgan ayollarning yorlari qonidan yozilgan maktubdir. Shoirning maqsadi faqatgina beva ayol suratini chizish emas, u olamdag'i qancha oilalarni yostig'inisovutgan, qancha bo'stonlarni sovurgan bo'rondan so'ylagan edi.

Yigitlar maktubin bitganda qondan,
Kelinlar firoqdan chekkanda yohu,
Uning ham panohi qaytmadi jangdan,
O'n to'qqiz yoshida beva qoldi u.

She'rda shoirning real voqelik materiali asosida sadoqat mavzusiga o'ziga xos yondashishi, o'z tafakkuri yog'dusi bilan qarashi mujassam topgan. Lirik qahramon sadoqatni hayotning buyuk ne'mati, tabiat in'omi deb biladi,. She'rda dunyoday qadimiy bu tuyg'uga bandi bo'lgan qalbning o'rtanishlari, o'y-fikrlari, ichki qarama-qarshiliklari ifodalangan. Ohista, bir maromda boshlangan ohang misrama-misra taranglashib, keskinlashib boradi. Bora-bora yurak hayqirig'iga, o'tli nidoga aylanadi. Lirik qahramonni shoir "yetim" deb aytadi. Bu DARDli so'z har bir inson qalbini jumbushga keltiradi. Haqiqatan ham na farzandi na turmush o'rto'g'i bor uning. Shu o'rinda bir jumlaga e'tibor qaratishingizni so'rayman: "qurigan ko'ksida yolg'iz belanchak". Aqalli farzani bo'lganda ham uning bag'ri to'lib turardi. Lekin bu firoqqa taslim bo'lmasdi. Endi yorini abadiy ko'rmasligini bilsa ham visolni kutadi.

Sevgidan yetim-u umrdan yarim,
Qurigan ko'ksida yolg'iz belanchak.
Adabiy firoqni, hayhot, do'stlarim,
Abadiy visol deb bildi kelinchak.

Ayolning sog'inchi, qorong'u kechalari, faqatgina MUZDEK bolishga ayon bo'lib qoldi. Bu yerda "muzdek" sifati orqali ayolning yolg'izligini ifodalaydi. Misradagi KO'MIR so'ziga e'tibor beraylik. Ko'mir qora rangdagi, qattiq jism. Shoir bu o'rinda ayolning hayotini, tund dilini, og'ir kechmishini yoritadi.

Qaqragan lablarda olovli nafas,
Kechalar kechmishin ayladi ko'mir.
Parishon sochlari yor ko'ksi emas,
Muzdayin bolishda qoldi bir umr.

Keyingi misrada ayolning o'tib borayotgan kunlarini tasvirlaydi. Ayni damda "botayotgan kun", "nomard tabiat" jumlalariga e'tibor beramiz. Kun bu quyoshdir. Quyoshning botishi tabiat hodisasiidir. Ayol har kuni botayotgan kunga termuladi, umid bilan, sog'inch bilan. Go'yo u ertangi kundan baxt, quvonch tilatyotgandek edi. Shunda shoir tabiatga ramzan taqdirga murojaat qiladi:

Yillar ham o'tdilar, hamon u yolg'iz,
Mung'ayib termular botguchi kunga.
Ey nomard tabiat, bormi senda his,
Qaytadan baxt bersang bo'lmasmi unga?!

Bu holatdan alamlangan shoir ishqni "ayblaydi", uning qimmatiga, mag'rur holatiga tasonno aytadi. Biz buni "nahot" so'zi orqali tushunib olishimiz yanada osonlashadi. Bu orqali vafoga ishora beradi. Chunki ishqni qadrini baland qilgan bu vafodir. Shoir ana shu buyuk hislarni o'zida tarbiyalagan ayolni, uning sadoqatini sharaflaydi. Go'yoki, ayolning sadoqati jangchini qahramon qilgandek.

Nahot, ishq qismati buncha beraxm,
Bunchalar buyuksan vafo shevasi.
Sengadir hurmatim, senga sharafim,

Qahramon jangchining sodiq bevasi.

Endi shoir urush yillarining ayollaridan zaonasining ayollari tomaon nazar tashlaysi. Go'yo ularni yonma-yon qo'yib solishtiradi. Barcha gaplarni yori yonida turib noshukrlik qilayotgan ayollarga qaratadi. Sabrsiz, o'zlari sadoqatni nimaligini anglamasdan turib, sadoqat da'vo qilayotganlarga murojaat qiladi. Oddiygina murojaat emas DARDLI murojaat.

Siz-chi ey, sadoqat satridan nolib,
Nadomat komida qolganlar, ayting.
O'zini ming bitta bozordan olib,
Ming bitta bozorga solganlar, ayting.

Shoir sadoqat sabab chaqnab turgan ko'zlarni BUYUK deb qadrlaydi. Ertalabdan kechgacha o'ziga oro berib o'tiradigan ayollarni esa qoralaydi. Ularga murojaat qilish orqali o'zidagi norozili kayiyatini bildiradi.

Ba'zida tirnoqlar bezagi uchun,
Sahardan shomgacha qilursiz toqat.
Biroq yoringizni kutgali nechun
Topilmas tirnoqcha sabr qanoat.

Endi shoir barchani chorlaydi. Go'zallik boyoqlarda emas, asl nazokat ayollik burchida, sadoqatida ekanligini aytmoqchi bo'ladi va chinakam g'ozallik qoshida, sadoqat qarshisida ta'zim qiladi. Zotan, shoir demoqchiki, siz ham nazokatli, sadoqatli ayol bo'ling deb:

Nazokat paytimas, yaqinroq keling,
Buyuk zot qoshida aylangiz salom.

Maqsuda Ergashevaning “Abdulla Oripov she'riyatning o'ziga xos xususiyatlari” maqolasida deydiki, “N. Xudoyberganov Abdulla Oripovning sadoqat gimniga aylanib ketgan «Ayol» she'riga ham noto'g'ri munosabat bildirgan. “Baxt va muhabbat yo'lida” nomli maqolasida “Fidoyilik, o'lgan odam uchun baxtni qurban qilish bu, asketizm va fatalizmning ko'rinishlaridan biridir. Bunday holat har qanday sharoitda ham kishini tushkunlikka, tarkidunyochilikka olib boradi” – deb yozadi va fikrini davom ettirib, Abdulla Oripovning “Ayol” she'rini misol keltiradi. “Abdulla Oripov o'zining “Ayol” she'rida beva qolgan ayollarni ulug'lab, o'zlarini “Ming bitta bozordan olib, ming bitta bozorga soladigan” buzuq xotin qizlarga qarata:

Shu sodiq bevaga sajdalar qiling,
Shu sodiq bevaga aylang ehtirom, – deydi.

Buni qanday izohlash mumkin? Avvalo shuki, yengil tabiatli xotinlar bevalarga sig'inmaydi, ularga bosh egmaydi. Negaki, ular bevalikni tarkidunyochilik bilan baravar deb tushunishadi. Binobarin, haligiday yengil tabiatli ayollarga nisbatan beva qolgan xotinlarni emas, balk ko'z o'ngida turmush kechirayotgan sadoqatli er-xotinlarni namuna qilib ko'rsatilsa yaxshi bo'lardi”. Tanqidchi: “Aza umrbod davom etishi

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

mumkin emas, nahotki, yoridan ajraganlarning hammasi bir umrga tarki dunyo qilishi kerak bo'lsa?" – deya ajablanib, "Ayol" she'ridagi singari ayollarni esa istisno holatlarga yo'yadi.

Yuqorida keltirilgan munaqqid fikrlariga bizning ehtiyozlарimiz bor. Birinchidan, fidoyilik hech qachon tarkidunyochilikka olib bormaydi. Agar yoridan ajralganlarning hammasi bir umrga yoriga sodiq qolmoq uchun beva o'tsalar ham, dunyo bundan hech qanday ziyon ko'rmasdi, balki bevafo, betutruqlar jabridan ruhi majruh, qalbi xasta bo'layotganlar, "sadoqat satridan nolib, nadomat komida qolgan" ayollar aybi bilan dunyoga kelib, tirik yetim bo'layotgan bolalar kamayar edi, qo'ying-chi, dunyomiz ma'naviy jihatdan poklanar edi.

Ikkinchidan esa, tannoz ayollar bevalarga sajda qilmas ekan, o'sha namunali er-xotinlardan ham o'rnak olmaydi. Agar shoир she'rini munaqqid aytgandek yozsa, u holda "Ayol" she'ri ayolga qasida emas, ayolga nasihat bo'lib qolardi. Umuman, sadoqatli er-xotinlarni namuna qilib ko'rsatish shoирning ishi emas, balki mahalla komitetlarining ishi emasmi?"

Darhaqiqat, shoир bu she'rda ayollarni namunali xotin-qizlarga emas, buzuq xulqli ayollarga qarata yoazadi. U nafaqat o'zbek ayoliga balki barcha ayollarga bag'ishlangan qasida edi. "Sodiq beva ayolga shunday haykal qo'yingki, so'z san'atkori, uni barcha zeb-ziynatlar bilan ziynatlang. Bu haykalni ko'rgan kishilar, sadoqat poyida ta'zim qilsinlar", - deydi.

Hatto zeb-ziynatni yulqib ziyoda,
Haykal ham qo'yingiz bamisli hayol.
Shundaylar bo'lmasa agar dunyoda,
Bu qadar muhtaram bolmasdi ayol.

3. Men tanlagen she'r voqeband lirika.

3. She'rda poetik obrazlar: ayol.

3.v. Shoир she'rda "qurigan ko'ksida yolg'iz belanchak" misrasida "qurigan ko'ksi" "yolg'iz belanchak" o'xshatishlari yordamida ayolning yolg'izligini, arzandsizligini aniqroq go'zal badiiy did va saviya bilan tasvirgan.

"abadiy firoq", "abadiy visol" tashbehlarida "abadiy" so'zi bir-biriga zid bo'lgan firoq va visol so'zlarini muqoyosa qiladi. Bu bilan ayolning sadoqatini yanada yorqinroq ko'rsatib beradi.

"zeb-ziynat", "sabr-u qanoat" juft so'zlaridan oqilona foydalangan shoир, ma'no kuchaytirishga erishgan.

3.d. AYOL

Yigitlar maktubin bitganda qondan,	11(6+5)
Kelinlar firoqdan chekkanda yohu,	11(6+5)
Uning ham panohi qaytmadi jangdan,	11(6+5)

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

O'n to'qqiz yoshida beva qoldi u. 11(6+5)

Sevgidan yetim-u umrdan yarim, 11(6+5)
Qurigan ko'ksida yolg'iz belanchak. 11(6+5)
Adabiy firoqni, hayhot, do'stlarim, 11(6+5)
Abadiy visol deb bildi kelinchak. 11(6+5)

Qaqragan lablarda olovli nafas, 11(6+5)
Kechalar kechmishin ayladi ko'mir. 11(6+5)
Parishon sochlari yor ko'ksi emas, 11(6+5)
Muzdayin bolishda qoldi bir umr. 11(6+5)

Yillar ham o'tdilar, hamon u yolg'iz, 11(6+5)
Mung'ayib termular botguchi kunga. 11(6+5)
Ey nomard tabiat, bormi senda his, 11(6+5)
Qaytadan baxt bersang bo'lmasmi unga?! 11(6+5)

Nahot, ishq qismati buncha beraxm, 11(6+5)
Bunchalar buyuksan, vafo shevasi. 11(6+5)
Sengadir hurmatim, senga sharafim, 11(6+5)
Qahramon jangchining sodiq bevasi. 11(6+5)

Siz-chi, ey sadoqat satridan nolib, 11(6+5)
Nadomat komida qolganlar, ayting. 11(6+5)
O'zini ming bitta bozordan olib, 11(6+5)
Ming bitta bozorga solganlar, ayting. 11(6+5)

Shu cho'lpon ko'zlarning buyuk hurmati, 11(6+5)
Shu aqiq lablarning rost so'zi deya. 11(6+5)
So'ylang-chi, vafoning nadir qimmati, 11(6+5)
Siz ham kutganmisiz biror soniya?! 11(6+5)

Ba'zida tirnoqlar bezagi uchun 11(6+5)
Sahardan shomgacha qilursiz toqat. 11(6+5)
Biroq yoringizni kutgali nechun 11(6+5)
Topilmas tirnoqcha sabr-u qanoat. 11(6+5)

Nazokat paytimas, yaqinroq keling, 11(6+5)
Buyuk zot qoshida aylangiz salom. 11(6+5)
Shu sodiq bevaga sajdalar qiling, 11(6+5)

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

Shu sodiq bevaga aylang ehtirom. 11(6+5)

Hatto zeb-ziynatni yulqib ziyoda, 11(6+5)
Haykal ham qo'yingiz bamisli hayol. 11(6+5)
Shundaylar bo'lmasa agar dunyoda, 11(6+5)
Bu qadar muhtaram bo'lmasdi ayol. 11(6+5)